

Bu qissa katta-kichik novellalardan iborat. Biroq ularning barchasida men uchun eng aziz odam — onam siymosi bor. Bunday odamlarning hammasini o'z ko'zim bilan ko'rganman. Faqal ba'zilarining ismi o'zgardi, xolos. Bu odamlarning qismati ham qaysidir jihati bilan onamga bog'langan.

Dunyodagi hamma onalar farzandiga munosabat bobida bir-biriga juda o'xshaydi. Bas, shunday ekan, bu asar sizlarga bag'ishlanadi aziz Onajonlar!

Muallif

Ehtimol, sizda ham shunday hollar bo'lgandir: tun yarmidan oqqanda birdan uyg'onib ketasiz. Shiftga tikilib yotaverasiz, yotaverasiz... Avvaliga chiqillab turgan soat ham bora-bora tinib qolgandek bo'ladi. Uy jimjit, deraza jimjit, qorong'i osmon jimjit. Hatto shamol ham qilt etmaydi. Shu qadar og'ir sukunat cho'kadiki, quloqlaringiz shang'illab ketadi. Zildek yuk ustringizga yopirilib, vujudingizni yerga mixlab tashlaydi; tanho, ojiz bir narsaga aylanib qolasiz. Go'yo butun dunyo bir tarafu siz o'zingiz bir taraf... Shunday paytda mening ko'z o'ngimda to'satdan onam paydo bo'ladi. Qorong'i xonaning bir burchidan chiqib keladi-da, ma'yus jilmaygan ko'yi boshim ustiga egiladi. Yillar zahmatidan dag'al tortgan barmoqlari bilan peshonamni silagandek bo'ladi... O'pkam to'lib, o'zimni tutolmayman. Birdan tush kabi uzuq-yuluq xotiralar yopiriladi, yuragim gursillagancha o'rnimdan turib ketaman.

OQ, OYDIN KECHALAR

Bolaligimni eslasam, iliq yoz kechalari ko'z oldimga keladi. Hovlimizda bir tup bodom bo'lardi. Erta bahorda qiyg'os gullardi-yu, hech meva tugmasdi. Onam: «Bodom yolg'iz bo'lgani uchun meva qilmaydi», deb tushuntirardi. Shu bodom tagida supa bor edi. Kun botishi bilan onam hovliga ko'loblatib suv separ, kunbo'yi oftobda qizigan yer hidi supa oldidagi rayhonlar isiga qo'shilib ajib bir tarovat taratar, atrof jimjit bo'lib qolar edi.

Keyin yirik-yirik yulduzlar bilan to'lgan osmonga tillaqoshdek ingichka oy suzib chiqardi. Oyim oyga tikilib turib ohista pichirlar cdi:

*Oymomaxon xulla,
Qanotlari tilla.
Subxon alio sizga,
Umr bersin bizga...*

Shunday deb boshimni silardi. Oymoma esa bu sehrli qo'shiqni yana bir eshitgisi kelgandek, viuallaq to'xtab qolar, yulduzlar o'ychan ko'zlarini tikib muloyim boqib turishar, onam ertak aytar edi.

*Toshlar orasiga kirib g'oyib bo'lgan baxtsiz qizcha yig'lab-yig'lab qo'shiq aytardi:
Ochil-ochil, oq toshlar-a.
Men onamni ko`rayin-a.
Diydoriga to'yayin-a.*

Men osmondan yulduzimni tanladim. Qarang, oyi, Yetti og'ayni orasidagi eng yorug' yulduz — meni-ki...

*Mayli, o'g'lim. O'sha yulduz seniki. Anovi to'rtinchisi — meniki.
Nega, oyi, to'rtinchisi eng kichkina yulduz-ku!*

Shuning uchun ham meniki... To'rtinchi yulduz— yetimcha yulduz. Ko'rdingmi, yaxshi o'smay qolgan. Yetimlarga rahm qilish kerak.

Yulduzlar sirli ko'z qisishar, tillaqoshdek ingichka oy sirli mo'ralar, shabada sirli shivirlar, sadarayhon bilan tuproq sirli hid taratar, osmon ham, yer ham sirlarga to'la edi.

Goho-goho osmonda birdan yulduz uchib qolardi. Hozirgina yonib turgan yulduz to'satdan lop etardi-yu, ingichka, nurli iz qoldirib g'oyib bo'lardi. Onam cho'chib tushardi: —Esiz... Bir bechoraning joni uzildi-ya...

Yuragim shuv etib, onamning pinjiga kirardim.

Ishqilib, boshqa yulduz uchmasin!

...Bolaligimni eslasam, iliq yoz kechalari ko'z oldimga keladi. Bilmadim, ehtimol o'sha oq, oydin kechalarda onam ilk bor qo'limga qalam tutqazgan-dir.

Yulduz to'la osmonga tikilaman. Ehtimol, osmondagi eng yorqin yulduzlar onalarning jonidir. Ehtimol, onalarning so'ngan yulduzlari birlashib quyoshga aylangandir. Oftobni ona deyishlari, ehtimol, shundandir.

TASALLI

Qabrston jimjit. Faqat yo'lakning ikki chetida saf tortgan mirzateraklar qabr ustiga bosh eggan farzandlardek onaga orom tilab alla aytadi. Ularning mungli shivirlashi tilovat sadolariga qo'shilib, yurakni ezuvchi ohangga aylanadi... Oq surp yaktak kiygan, mosh-guruch soqoli o'ziga yarashgan go'rkov yuziga fотиha tortib o'rnidan turadi:

—Bo'ldi endi, bolam! Bunaqada o'zingizni oldirib qo'yasiz. Dunyoning ishlari shu ekan, iloj qancha? — U bir zum indamay qoladi-da, qo'shib qo'yadi: — Volidai mehriboningiz xo'p yarlaqagan odam ekanlar. To'shakda yotmabdilar, birovga zoriqmabdilar... Bunaqa beozor o'lim har kimga ham nasib etavermaydi.

Nami qurib ulgurmagan tuproq uyumiga tikilganча o'ylayman.

Ehtimol shundaydir. Onam bu dunyoda kamsuqumgina yashardi. Hech kimga ozor bermasdi. Hech kim bilan hech nimani talashmasdi. Ehtimol, tabiatning eng shafqatsiz elchisi bilan ham olishib o'tirishni xohlamagandir. Ehtimol...

—Ko'rdingizmi, — deydi qariya oychan ohangda, — o'sha kuni kechasi bilan jala quyib chiqdi. To' qabrga qo'ygunimizча tinmadi. Qo'yishimiz bilan charaqlab oftob chiqdi. Bunaqa ruhi pok odamlar kam bo'ladi, bolam, men bilaman-ku.

Ehtimol shunday hamdir. Balki, odamlarning dardiga sherik bo'laverib ko'nikib ketgan bu nuroniy qariya kerakli paytda har kimga ana shunday tasalli so'zini aytar. Rahmat senga, otaxon. Ertami-kechmi har kimning ishi tushadigan mana shu qo'llaring uchun rahmat. O'rtanib turgan yurakka suv sepa biladigan mana shu hamdard qalbing uchun rahmat. Faqat... Hamma gap yomg'irda bo'lsa, yana aqalli uch kungina onamning umri cho'zilsa-yu, keyin yomg'ir emas, muttasil tosh yog'sa ham rozi edim...

Bir hafta bo'ldiki, do'stlarim, tanish-notanishlar eshikdan ma'yus kirib kelishadi. Do'stlarim jimgina o'tirib, jimgina chiqib ketishadi. Boshqalar ohista so'raydilar:

—Necha yoshda edilar?

Men aytaman... Aytamanu o'ylayman: onaning yosh-qarisi bo'ladimi? Mehrning yosh-qarisi bo'ladimi? Shafqatning-chi? Sadoqatning-chi?

Ilgarilari bir haqiqatni bilardim. Ona uchun bolaning katta-kichigi bo'lmaydi. Endi yana bir haqiqatni angladim. Bola uchun ham onaning katta-kichigi bo'lmas ekan.

Ona — ona ekan. Unga boshqa sifat kerakmas.

TUSH

Tush ko'rsam, onam chiroq ko'tarib yurganmish. Yuzini aniq ko'rmasmishmanu, ammo qo'lidagi chiroq xira nur sochib turganmish. «Ko'zingga qara, bolam, chuqur bor», dermish nuqul. Qarasam, chuqur yo'q. Uyg'onsam, onam ham yo'q...

Ba'zan ish bilan, ba'zan majlislar bilan, gohida ulfatchilik bilan uyga kech qaytardim. Bir kuni Namangandan mehmonlar kelib qolishdi. Uyga borishga ko'nmay, o'zimni restoranga sudrashdi. Yarim kechagacha qolib ketdim. Uyga qaytganimda kayfim bor edi. Darvozani onam ochdi. Sovuqda mushtdekkina bo'lib dildirab turibdi.

—Shu vaqtgacha uxlamadingizmi! — dedim zarda qilib. — Eshik ochishga sizdan boshqa odam yo'qmi?

Onam ma'yus jilmaydi:

—Uyqu qatta, bolam? O'o'tiribman.

Ertasiga redaksiyada navbatchilik cho'zilib ketdi. Qarasam, yana onamning chirog'i yoniq.

—Nega uxlamadingiz?

Onam yana ma'yus jilmaydi:

—Bilasan-ku, jon bolam, kamuyqu bo'lib qolganman.

Men nodon, onamning kamuyqu bo'lib qolganiga, yarim kechagacha yuramanmi, tongotar qaytamanmi, onamning chirog'i muttasil lipillab turishiga xo'p ko'nikkan ekanman.

Qaysi kuni ishdan keyin Moskvalik mehmonlarni aeroportga kuzatib qo'yadigan bo'ldim. Samolyot kechikib uchdi. Yarim kechada uyga qaytsam... hammayoq jimjit. Hamma o'z oromi bilan...

Tushimda onam chiroq ko'tarib yurganmish.

HAQQUSH

Do'stlarim: «Juda siqilib ketdingiz, aylanib kelamiz», deb toqqa sudrashdi. Alla-pallagacha o'tgan-ketgandan gaplashib o'tirdik. Qiziq, har gal bosh ustiga bosib tushgudek mag'rur qad kerib turgan tog'larni, ulkan novvot parchasidek qirrador qoyalarni ko'rganda hayot abadiy emasligini o'ylayman. Qorong'i osmonda yana ham qoraroq soyadek qilt etmay turgan bu qoyalar bizga o'xshaganlarning necha-nechasini ko'rdi ekan?.. Faqat ularning tili yo'q...

Kechasi tunagan joyimiz sovuq edi. Anchagacha uxlay olmadim. Tashqarida teraklar shitirlaydi. Qayerdadir, yaqin joyda daryo shovullaydi. Bir mahal qulog'imga dilni orziqtiruvchi mungli tovush chalindi: «Haq-qu, haq-qu...» Birzum sukunat tushdi-da, ancha olisdan yana o'sha tovush takrorlandi: «Haq-qu, haq-qu...»

Bola edim, go'dak edim. Onam aka-ukalar haqida g'alati bir cho'pchak aytib bergan edi. Emishki, bir zamonlar ikki aka-uka yashagan ekan. Birining oti Ilhaq, ikkinchisiniki Ishoq ekan. Ikkalasi bir-birini ko'rarga ko'zi yo'q, juda noahil ekan. Ularning ko'nglini olaman, deb ikki o'rtada onalari adoyi tamom bo'pti. Shunda qodir Xudoning qahri kelibdi-yu, ikkovining ham ko'zini ko'r qilib, qushga aylantirib qo'yibdi. Shundagina aka-uka bir-birini ko'rmasa turolmasligini, bir-biriga kerak ekanligini tushunishib-di.

O'shandan beri ikkalasi ecchalari bo'zlab bir-birini chaqirib chiqisharmishu, topolmas emish...

Tashqarida hamon terak barglari shitirlaydi. Daryo shovullaydi. Mana shu shovullagan sukunat ichida dilni titratadigan iztirobli nido yangraydi: «Ilhaq! Ishoq!..»

Bechora onam! O'sha iztirobli afsonani aytayotganingda inidan mo'ralagan qaldirg'och bolasidek ko'rpadan bosh chiqarib yotgan besh bolang bir-biri bilan inoq bo'lishini shunchalik xohlaganmiding!

...Onalar farzandlari hamisha birga bo'lishini istaydilar. Qismat esa, ularni qanot chiqarishi bilan har yoqqa uchirib ketadi. Hayot loaqal shu masalada ham onalarga shafqat qilmaydi.

QARZ

Bir kuni gapdan-gap chiqib, aka-ukalar oyimga hazillashdik:

Har oy pensiya olasiz. Shuncha pulni qayoqqa qo'yyapsiz? Sandiqqa bosyapsizmi?

Sandiq qatta, bolam? — deb kuldi onam. — Qarzlarim bor. O'shanga beraman-da.

Akamning qovog'i osildi:

Qarz? Hali birovdan qarz ham olasizmi?

E, senga nima, bolam! Mcning ishimga aralashib nima qilasan?

Keyin gap boshqa yoqqa aylanib ketdi. Bu suhbatni butunlay unutib yuborgan edim.

Qaysi kuni ertalab hovlida aylanib yursam, qo'shnimizning yetti yashar qizchasi Nilufar chiqib qoldi. Oppoq bantik taqib, atlas ko'ylak kiyib olibdi.

—Ha, Nilu, yasanib olibsan, mehmonga ketyapsanmi? — dedim erkalab.

Bugun man tug'ildim, — dedi u qop-qora ko'zlarini pirpiratib jilmayarkan.

Iya, yubilyar ekansan-da, shoshmay tur-chi. hozir...

Uydan bir hovuch konfet olib chiqdim.

—Mana, o'rtoqlaring bilan ye.

Nilufar kattalardek jiddiy bosh chayqadi:

—Men ishkalad yemayman. Tishim tushgan. —Keyin yana o'sha jiddiy ohangda qo'shib qo'ydi: — Bultur poshsha buvim menga tufli olib beruvdilar.

Tug'ilganimda. — Qizcha o'ylanib qoldi. — Keyin-chi, Bahoga uch oyoqli velosiped, Baxtiga ko'ylak...

Qo'limdan konfet tushib ketdi.

O'tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari”asaridan parcha